II. SANOAT

Viloyat sanoat korxonalarida tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish hamda ishlab chiqarish quvvatlarini texnik va texnologik jihatdan yangilash jarayonlarining jadallashishi natijasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 3 796,8 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi ta’minlanib, ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2022 yilning tegishli davriga nisbatan 104,0 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida ko‘proq qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri kelib, uning ulushi 97,4 foizni tashkil etdi (2022 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 109,3 %). Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash ulushi 1,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 57,3 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish ulushi 0,4 foizni (ishlab chiqarish indeksi 55,0 %), tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash ulushi 0,6 foizni (ishlab chiqarish indeksi 14,8 %) tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish tarkibi
(jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
(2023 yilning yanvar-mart)

	Mlrd. so‘m	*2022 yil yanvar-martiga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda*
Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi	**3796,8**	**104,0**
Tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	**24,2**	**14,8**
ulardan:		
tog‘–kon sanoati bilan bog‘liq boshqa faoliyat	24,2	14,8
Qayta ishlash sanoati	**3697,4**	**109,3**
undan:		
oziq–ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	265,6	85,2
ichimliklar ishlab chiqarish	3,7	94,3
to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	819,1	88,5
kiyim ishlab chiqarish	145,1	126,7
teri va unga tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish	0,4	137,4
yog‘och va po‘kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to‘qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	16,3	92,3
qog‘oz va qog‘oz mahsulotlari ishlab chiqarish	19,9	202,6
yozilgan materiallarni nashr etish va aks ettirish	1,3	91,0
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	114,3	130,4
Farmasevtika mahsulotlarini va preparatlarini ishlab chiqarish	-	-
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	106,6	121,1

davomi

	Mlrd. so‘m	2022 yil yanvar-martiga nisbatan ishlab chiqarish indeksi foizda
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	-	-
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	302,1	79,6
metallurgiya sanoati	29,5	125,3
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	18,2	188,9
elektr uskunalarni ishlab chiqarish	153,5	131,1
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	3,6	186,0
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	0,3	0,2
Mebel ishlab chiqarish	47,8	117,8
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	39,5	68,2
mashina va uskunalarni ta’mirlash va o‘rnatish	10,5	64,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1600,1	200,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	**59,8**	**57,3**
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	**15,4**	**55,0**

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarida eng yuqori ulushini ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari (97,4 foiz) hissasiga to‘g‘ri keladi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida sanoat korxonlari tomonidan 3 796,8 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqargan bo‘lsa, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 104,0 foizni tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarida yuqori ulushini tashkil etgan korxonalar hissasi
(foiz hisobida)

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

21,6 %

To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 29,4 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 119,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko‘ra, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 foizni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 11,5 foizga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 819,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

7,1 %

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 10,8 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 104,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi 7,1 foizni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 14,7 foizga pasaydi va ishlab chiqarish hajmi 269,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotrasport vositalari,treylerlar yarim priseplar ishlab chiqarish

42,1 %

Avtotrasport vositalari,treylerlar yarim priseplar ishlab chiqarish

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-mart oylarida avtotrasport vositalari,treylerlar yarim trkamalar ishlab chiqarishning ulushi 25,3 foizni, uning fizik hajm indeksi esa 125,0 martani tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilning yanvar-mart oylar yakunlariga ko‘ra, avtotrasport vositalari, treylerlar yarim priseplar ishlab chiqarishning ulushi 42,1 foizni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 2,0 martaga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 1600,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda

Jizzax viloyatida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p Jizzax shahri (Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining 23,3 foiz ulushini), Zafarobod (6,5 %) va G‘allaorol (43,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsuloti turlarini ishlab chiqarish
(yirik korxonalar bo‘yicha)

	O‘lchov birligi	2023 yil yanvar-mart	2022 yilning yanvar-martiga nisbatan foiz
Ishlab chiqaradigan sanoat			
Paxta xom-ashyoni qayta ishlash	t	27 963,2	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi	t	10 893,6	38,8
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 1 navli	t	8 057,6	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 2 navli	t	2 351,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 3 navli	t	403,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 4 navli	t	77,0	-
Kardli yoki taroqli taralgan paxta tolasi 5 navli	t	5,0	-
Paxta chigiti	t	14 643,5	72,4
Momiq	t	898,5	96,2
Tozalangan paxta yog‘i	t	1 489,9	58,1
Chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	27 427,4	96,2
Soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti)	t	127,0	78,4
Tarkibida yog‘ yoki hayvon yoki o‘simlik mumi bo‘lgan moddalarni qayta ishlashning boshqa qoldiqlari va chiqindilari	t	-	-
Yumshoq bug‘doy va spel’ta uni	t	6 146,7	36,7
Yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko‘p komponentli aralashmalardan tashqari)	t	2 841,0	15,6
Mashinada yoki qo‘lda to‘qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	498,0	113,2
Chakana savdo uchun qadoqlanmagan paxtadan yigirilgan bir qavatli ip	t	9 921,5	102,0

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2 242,5 mlrd.so‘mni tashkil etdi va 2022 yilning mos davriga nisbatan 162,7 foizini, uning jami sanoatdagi ulushi 59,1 foizini tashkil etdi.

Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi
(jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan foizda)



Oziq-ovqat mahsulotlari

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish vino va aroq mahsulotlari va pivo 2023-yil yanvar-mart oylarida 11,8 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib 37,0 foizni va Zarbdor 12,3 foizni, Zomin 11,6 foizni hamda Paxtakor tumanlarida 7,4 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Baxmal tumanida (175,6 %), G‘allaorol (159,3 %) hamda Zarbdor tumanlarida (158,8 %), qayd etildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari

Nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 2023-yil yanvar-mart oylarida 88,2 foizni tashkil etdi. Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to‘g‘ri kelib 9,7 foizni va G‘allaorol tumanida 78,8 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, Nooziq-ovqat iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Jizzax shahrida (116,1 %), G‘allaorol (230,5 %) hamda Do‘stlik tumanlarida (138,7 %), qayd etildi.



2023 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish



1 047,3 mldr.so‘m
2021-yil yanvar-mart

1 585,5 mldr.so‘m
2022-yil yanvar-mart

2 566,6 mldr.so‘m
2023-yil yanvar-mart

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish %





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri (4 595,6 ming so‘m), Zafarobod (4 670,1 ming so‘m), G‘allaorol (9 010,2 ming so‘m), Do‘stlik (3 385 ming so‘m) hamda Paxtakor (1 957 ming so‘m) tumanlari o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

2023 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi, viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Mazkur dastur doirasida 2023-yilning yanvar-mart oylarida 1 982,0 mlrd. so'mlik mahalliylashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarilib, 4 365,1 ming AQSH dollari miqdorida mahsulotlar eksport qilindi va 379 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.



2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da

1. **Baxmal** 100,0
2. **Mirzacho‘l** 100,0
3. **Yangiobod** 100,0
4. **G‘allaorol** 99,0
5. **Forish** 97,7
6. **Arnasoy** 95,7
7. **Sharof Rashidov** 48,9

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 414,3 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 63,6 foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Baxmal, Mirzacho‘l va Yangiobod tumanlarida (100,0%) yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Do‘stlik (12,0 %), Zafarobod (8,1 %) hamda Zarbdor (22,9 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

8. **Zafarobod** 8,1
9. **Do‘stlik** 12,0
10. **Zarbdor** 22,9
11. **Jizzax shahar** 33,1
12. **Paxtakor** 37,5
13. **Zomin** 39,5

2023 yil yanvar-mart oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



Tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, kichik biznesning jami iste'mol mollari ishlab chiqarishdagi ulushi Zarbdor (60,7 %), Zomin (66,9 %) va Jizzax shahar (78,5 %) tumanlarida nisbatan past ko'rsatkichni qayd etgan.

2023 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mollari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi, % da



2023-yilning 1 aprel holatiga viloyatda 2 965 ta faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari bo'lib, ulardan 188 tasi yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari hisoblanadi.

Sanoat tarmog‘ida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalari, birlikda
(2023 yilning 1 aprel holatiga)



Hududlar miqyosida olib qaralganida, sanoat tarmog‘ida yangi tashkil etilgan kichik biznes korxonalarining asosiy qismi Jizzax shahrida (42 ta) va G‘allaorol (44 ta) tumanida joylashgan.

Shuningdek, Sharof Rashidov tumanida (12 ta), Zarbdor (13 ta), Forish (8 ta), Do‘stlik (12 ta), Paxtakor (4 ta), Zomin (23 ta), Baxmal (3 ta), Arnasoy (7 ta), Mirzacho‘l (6 ta) Zafarobod (7 ta) va Yangiobod (7 ta) tumanlarida ham sanoat tarmog‘idagi yangi tashkil etilgan korxonalar faoliyat yuritib kelmoqda.